

## METAFORA – MA’NO VA TUYG‘U UYG‘UNLIGI

**Dadaxon Muhammadiyev**

*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori  
instituti tayanch doktoranti*

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada she‘riyatdagi badiiy vositalar tahlil qilingan. Xususan, metaforalardagi tuyg‘u bilan birgalikda tafakkur va idrok bilan ham bog‘liq hodisa ekanligi ochib berilgan. Nazariy fikrlarni asoslash uchun Abduvali Qutbiddin she‘rlaridan misollar keltirilib, she‘rlar ma‘no va tuyg‘u uyg‘unligi jihatdan tahlilga tortilgan.*

***Kalit so‘zlar:** metafora, metaforik tafakkur, tuyg‘u, obraz, tasvir, idrok.*

She‘r – ruhning so‘zdagi aksi, holatning shaklda ifoda topishi tuyg‘uning suratlanishi demakdir. Har qanday ijod mahsuli badiiy hodisa bo‘lishi bilan birga Ruh va tuyg‘u hodisasi hamdir. O‘quvchi she‘rni o‘z ruhiyati, idroki va anglami tarziga ko‘ra qabul qilgani bois she‘r haqidagi talqinlar turlicha bo‘lishi tabiiy hol. She‘r ko‘pqatlamli badiiyat hosilasi ekanligini nazarda tutsak, talqinlar ham turfa kechishi tayin. Tabiiyki, she‘rdagi poetik obraz, metaforalarni tushunish, kechinmaga hamdardlik hissi shoir va o‘quvchi o‘rtasidagi ma‘lum bir ruhiy yaqinlikni dialogik bog‘liqlikni keltirib chiqaradi. Gap she‘rda obraz yaratish, metaforik holatlar haqida ketar ekan, metaforaning faqatgina til vositasi yoki obraz emas, balki fikrlash tarzi ekanligini ham unutmash lozim. Abduvali Qutbiddin she‘riyati aynan ana shu jihati bilan o‘ziga xos.

Shoir she‘rlarida dunyo adabiyoti ohanglaridan tortib tasavvuf va Islom ma‘rifatining turfa ranglarigacha aks etib turadi. Ifoda uslubi jihatdan bu she‘rlar boshqa bir shoir ijodiga o‘xshamaydi. Filologiya fanlari doktori M.Davronova aynan ana shu uslubga to‘xatalib, A.Qutbiddin haqida “Bir she‘rda turlicha vaznlarni ham qo‘llayveradi. Ham diniy, ham falsafiy tasavvufona tushuncha, aqidalarini yaxlit holda aks ettirish Abduvali Qutbiddinga xos xususiyat hisoblanadi”- deydi. [Davronova M. 1:25] Shoir she‘rlarini tahlil qilar ekanmiz, bitta she‘rning o‘zida mifik tafakkur talqini, ham mumtoz adabiyotimiz an‘analari, tasavvufga doir ishora, ham o‘zining xayolot dunyosidagi hissiy ruhoni holatlarni ko‘rish mumkin. Olima fikricha, shoir tasavvuf g‘oyalarini yangicha shakllarda ifoda etganligi bois original va betakror ijod namunasi yuzaga kelgan [Davronova M. 1:30]. Bu o‘rinli fikr. Ammo bu fikrni shoirning barcha she‘rlariga nisbatan aytib bo‘lmaydi. Shoirning metaforik tafakkuridagi hodisa poetik nutq orqali obrazga aylanib, she‘rga ko‘char ekan, turfa xil holat yuzaga keladi. Tabiiyki, talqinlar ham turlicha bo‘ladi. Adabiyotshunos Sa‘dulla Quronov ham o‘zbek adabiyotiga yangicha yo‘nalishlarning kirib kelishi jarayonini tahlil qila turib, shoir ijodi xususida quyidagi fikrni aytadi: “Undan oldingi shoirlarning she‘rlarida muayyan modernistik vizual obrazlar yaratilgan bo‘lsa, A.Qutbiddin butun tasvirni, butun



manzarani modernistik uslubda “chizadi” [Quronov S. 2:38]. Bu yerda modernistik uslub, umuman olganda, modernizm tushunchasini “yangi, zamonaviy” [Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. 3:176] degan ma’nodagi tushunadigan bo‘lsak, bu uslubni har bir iste’dodli ijodkorning o‘z dastxatiga ega bo‘lgan ijod namunalariga nisbatan ishlatish mumkin. Bu jarayonda Abduvali Qutbiddinning o‘ziga xosligi – butun manzarani metaforik usulda ko‘rsatishi, metaforalanayotgan bir nechta tasvirlar birgalikda bitta poetik holatni ifodalashga xizmat qilishidir. Bu chizgilarda metafora bor bo‘y-basti bilan namoyon bo‘ladi. She’rdan metaforani ajratib bo‘lmaydigan holatlar yuzaga keladi.

She’rdagi o‘xshatishlar, metaforalar ham shunchaki paydo bo‘lmaydi. Iste’dod bilan birgalikda bilim, idrok, hayotiy kuzatishlar hosilasi bu. Adabiyotshunos Suvon Meli aksar shoirlarning she’r orqali fikr yuritishga intilishini aytadi. [Meli S. 4] Bu tabiiy jarayon. She’r orqali fikr yuritish jarayoni esa o‘z navbatida metaforik tafakkur tabiatini hosil qiladi. Maftuna Xolovanning fikricha, boshlang‘ich metafora o‘zining yasama shingillari bilan kengaya borib, jamiki matnni o‘z tarkibiga qo‘shib oladi. “Bu hodisani shartli ravishda “metaforik tafakkur she’riyatini” deya ataymiz”, - deydi u. [Xolova M. 5:35]

Metaforik tafakkurni dastlab shartli ravishda aqliy jarayon deb oladigan bo‘lsak, uni tasvirlanayotgan obyektlar o‘rtasidagi qiyoslash, taqqoslash holati sifatida tasavvur qilamiz. Ongning o‘xshashlikni izlash jarayonini ham metaforik tafakkur deb berish mumkin. Umuman olganda, o‘rtada deyarli farq yo‘q. Agar metaforik tafakkur bu aqliy jarayon bo‘lsa, u tabiiy ravishda mantiqiy fikrlashni taqozo qiladi. Bu esa ijod jarayoniga salbiy ta’sir qilishi, his qilish tushunchasidan uzoqlashtirib qo‘yishi mumkin. Biroq she’rga faqatgina hissiy jarayon deb qaralmaydi. Tevarak-atrofdan, tabiatdan, kitoblardan va hayotdan olgan bilim-ko‘nikmalar tuyg‘ular orqali she’rga ko‘chishini hisobga olish kerak. Bundan kelib chiqadiki, tafakkur tushunchasi singari metaforik tafakkur ham faqatgina aqliy jarayon emas. Bunda aqlning ham, hisning ham ulushi yetarli.

“*Taxayul tunida...*” deb boshlanuvchi she’rda [Qutbiddin A. 6:94] shoir murakkab bir shaklda murakkab bir ruhiyatni aks ettiradi. Tashqaridan qaraganda shunday. Ammo she’rning ruhiyatiga teranroq nazar solib, uni yangicha usul, yangicha metaforalar sifatida olsak, tushunish ham osonlashadi, ruhiyat ham oydinlashadi.

She’rning shakli boshida biz ko‘nikkan barmoq she’r tizimining namunasi sifatida ko‘rinadi. Ammo bo‘g‘in va vazn tengsizligi bilan shakliy jihatdan odatiy she’rdan boshqacha ekanligi namoyon bo‘ladi. Biroq, ohang va ruhiy holat o‘ziga xos hamda noodatiy. Shu bilan birga tabiiy va ravon:



*Taxayul tunida seni esladim,  
Kaftingda baxt qushi, yelkangda kaftar.  
Poyingda tiz cho‘kib mo‘ltirar mayus  
Kiyiklar.*

Taxayul tuni nima? Taxayul, ya’ni xayol bilan o‘tadigan uzun tun qanday bo‘ladi o‘zi? Nega taxayul onlari yoki xayol surish pallalari emas, taxayul tuni? Soniyalar yoki soatlar emas, butun tun... Tahlil davomida esda tutish kerak bo‘lgan jihat ham shu – voqealar, holatlar taxayul tunida, taxayul pallalarida sodir bo‘lyapti. Ana shu butun tundagi oshiqning ma’shuqani o‘ylab, eslab, xayol surib o‘tishi va undagi tasavvurlarga e’tibor bering: Baxt qushini qo‘lida tutib turgan ma’shuqaning yelkasida kabutar (kaftar) turibdi. Baxt qushi – ramziy qush, timsol. She’rdagi holatda bu qush ma’shuqaning qo‘lida, kaftida turibdi. O‘zi kaftida baxt qushini tutib turgan bo‘lsa, uning ustiga yelkasida kabutar ham bor. Aslida real holatda kabutarlar, hatto o‘rgatilgan kabutarlar ham har kimning yelkasiga qo‘navermaydi. Birgina holatda bu qadar katta baxt! Mazkur satrdagi kaft va kaftar so‘zlari ohangdorlikni ham ta’minlab bergan. Kiyiklar esa ma’shuqaning poyida mayusgina bo‘lib, mo‘ltirab tiz cho‘kib turibdi. Ushbu bandning mazmuni tahlilga muhtoj emas edi aslida. Biroq keyingi bandlarning tahlili birinchi banddan ham izoh talab qilishini eslatib o‘tish joiz:

*Boshingda gulbargak, qarog‘ingda oy,  
Sevdim, dedim seni, manglayi yalpiz,  
Qo‘y dedi, etaging tishlab yotgan toy —  
Ona qiz bu,  
Ona qiz.*

Bu bandda ham ma’shuqaning go‘zal tasviri davom etyapti. Boshida gulbargaklar, ko‘zlariga oyni yashirgan, manglayidan yalpiz ifori taralgan ma’shuqaga sevgi izhori ham bor. Ammo band so‘nggida ma’shuqa emas, singil ekanligi anglashilyapti. “*Ona qiz bu, ona qiz*” deya ma’shuqani qizg‘onayotgan toyning tasviriga qarang. Ona qiz, deganda xalqimizda odatda singil tushuniladi. Shoidan ma’shuqani qizg‘anayotgan toy uni o‘ziga singil deb bilyapti. “Qo‘y, uni sevma! U bizga singil bo‘ladi” degan da’vat bor bu yerda. Bu qizg‘anishlar keyingi bandda yana ham murakkablashadi, og‘irlashadi:

*Qaldiraq burgutday yerga tashlandi,  
Oyog‘imdan tortdi, bog‘ladi yo‘lga.  
Yo‘l chopdi,  
Juda ko‘p chopdi.*



***Tashladi malaklar cho‘milgan ko‘lga.***

***Sev, sev, sevv!***

Bir zumgina shovqin solib, o‘tib ketadigan qalldiroq (momqalldiroq) bu safar yerga tashlandi. Oshiqni boshqa yo‘lga boshladi, oyog‘idan tortdi, keyin uzoq yo‘lni bosib o‘tishdi: “*Yo‘l chopdi,/Juda ko‘p chopdi*”. Oshiqni shu taxlit ko‘p qiynoqlarga soldiyu, olib borib malaklar cho‘milgan ko‘lga tashladi: “Sev!”, dedi. Ona qiz, ya‘ni she‘rning boshidan bizga ma‘lum ma‘shuqa u tomonda qolib ketdi. E‘tibor bering: “Ona qiz” degan ta‘kid bu yerda shoirniki (roviyniki, lirik qahramonniki) ta‘kidi emas, “etagin tishlab yotgan toy”ning ta‘kidi. U shoir uchun emas, toy uchun ona qiz. Ona qizni singil bilib toy qizg‘andi, so‘ng qalldiroq oshiqni ma‘shuqadan boshqa yo‘lga tashladi. Malaklar cho‘milgan ko‘lni tasavvur qiling. “Shuncha sohibjamol, shularni sev” dedi qalldiroq. Ma‘shuqani yana qizg‘andi. She‘rning davomida qalldiroqning baqirib, shamollarning qichqirib o‘tishi, sohibjamollarning peshvoz chiqishi holati ham odatiy shaklda berilmagan. Shunday holat yuzaga keladiki, endi o‘sha sohibjamollarning o‘zi “Sev meni!” deb da‘vat qiladi. Avval ma‘shuqaning poyida tiz cho‘kib mo‘ltiragan kiyiklar, so‘ngra “Ona qiz bu” degan toy, so‘ng qalldiroq, undan so‘ng shamol, ana endi sohibjamollarda ham qizg‘anish bor. Ularning barchasi ma‘shuqani oshiqdan qizg‘anyapti, asrayapti, ehtiyotlayapti. “Uni qo‘y, meni sev!” degan da‘vat ham aynan o‘sha malaklar cho‘milgan ko‘ldan kelyapti. Davomida esa “*Shundan so‘ng ko‘zimga mil tortdim, ko‘zimni ko‘r qildim-u, seni esladim. Seni ko‘rishning boshqa chorasi yo‘q edi*” deyilganday holat bor:

***Ko‘zimga mil tortdim, seni esladim***

***Kaftingda baxt qushi, yelkangda kaftar.***

***Osmon markaziga botayotirsan,***

***Osmon markaziga botar***

***Kiyiklar.***

Kiyik hurkak, o‘ta beozor hayvon. Eng qizig‘i, ovchilar doim unga xaridor. Uning yo‘llariga doim tuzoq qo‘yilgan. Ana shu beozorligi bilan ham u ma‘shuqaning yonida. Boshida uning poyida tiz cho‘kib, mayusgina mo‘ltirayotgan kiyiklar she‘rning so‘ngida ma‘shuqa bilan birga osmon markaziga botadi. Botganda ham ufqqa yoki tongotar tomonga emas, osmon markaziga botib ketyapti. Xo‘sh, osmon markazi qayerda? Tasavvurdan ham yiroq bir makonmikan? Idrokning ich-ichidagi bir anglamlardan chiqib kelarmikan bu tushuncha? Eng toza, gunohsiz mavjudot-u maxluqotlar Ollohga yaqin bo‘ladi. Shartli ravishda “osmon markazi”ni ham shunga yaqin tushuncha deb qabul qilamiz. Shu ma‘noda “osmon markazi”ni “Ollohning makoni” deb tushunsak ham bo‘lar... Aslida birovga



yomonligi tegmagan, birovga og‘irligi tushmagan, beozor va toza kiyiklar osmon markaziga botadi. Bu muttasil jarayon. Ma’shuqaga ham shu ulug‘lik ravo ko‘rilyapti. “Nega kiyiklar?” degan so‘roq biroz anglashilganday. Ammo boshqa o‘quvchida boshqacha variantlar bo‘lishi ham tabiiy hol...

Yuqorida mazkur she‘rdagi voqealar, holatlar *“taxayyul tunida”*, taxayyul pallalarida sodir bo‘layotganligini alohida ta’kidladik. Aynan shu jihat she‘r haqidagi boshqa talqinlarga ham yo‘l ochadi. Uni turlicha idrok etishni inkor qilmaydi.

She‘r ba’zida noodatiy so‘zlar, noodatiy o‘xshatishlar bilan ham ifodalanadi. Lekin aslo mantiq doirasidan chiqib ketmaydi. Chunki mantiq – o‘quvchining tafakkuri va hissiyotini bir vaqtda ko‘rsatib yo ochib beradigan tushunchadir. She‘r murakkablashadi, soddalashadi, janr va shakl jihatdan turfa xilda ifoda qilinadi. Ammo so‘zning mohiyati o‘zgarmaydi, balki teranlashadi. Bu vaziyatda metafora lirikaning eng muhim jihati ekanligi ko‘rinadi. Metaforik tafakkur oddiy nutq va g‘ayrioddiy gaplardan ajratib ko‘rsatiladi. Demak, she‘riyatda metafora va tasvirlardan foydalanish bu shunchaki matnni jozibali qilish degani emas. Uni fikrlash va fikrni shakllantirish usuli deb qaraydigan bo‘lsak, yuqorida ta’kidlangan metaforik tafakkur mexanizmiga yo‘l ochiladi. Metaforik tafakkur jarayoni tuyg‘u bilan birga idrok va bilim bilan hosil bo‘ladigan holat ekanligi namoyon bo‘ladi.

#### Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Davronova M. Hozirgi o‘zbek she‘riyatida individual uslub poetikasi. Fil. fan. dok. (DSs) diss. avtoref. – Samarqand: 2019.
2. Quronov S. Modern she‘riyatda tasvir // Yoshlik. 2018. № 9.
3. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
4. Meli S. Poetik aljabr yoxud noaniq aniqlik / O‘zAS. 2015. № 30.
5. Xolova.M. Modern she‘rda metaforik tafakkur tarzi // Xorijiy filologiya jurn. 2020. №1.
6. Qutbiddin A. Baxtli yil: she‘rlar. – Toshkent: Adabiyot va san‘at, 1991.